

SIMMENTAL ZOTI SIGIRLARINING YELINI SHAKLI VA SIFATINI O'RGANISH

Ilmiy rahbar

Mamatov Xurshid Abdirafievich

Bakalavr. Kaljanbaev Sagindik Paraxat ugli

Bakalavr. Ubaydullaeva Gozzal Qalqoraz qizi

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

Annotatsiya. Bu maqolada simmental zoti sigirlarining yelini shakli va sifatini o'rganish haqqida malumot berilgan. Asosiy texnologik belgilari hayvonlarning tirik vazni, konstitutsiyasining mustahkamligi, mashina sog'imiga moslashganligi, mahsuldorligi, kasalliklarga chidamliligi, oyoqlari va tuyoqlarining mustahkamligi, serpushtligi, fe'l-atvori va boshqalar kiradi.

Kalit so'zlar. Elin shakli, kosasimon, yumaloq, echki elin, kunlik sog'im, zotlar sigirlar soni.

Kirish. Sutchilik va burdoqichilik komplekslariga o'zaro o'xshash va yuqori mahsuldor, bir xil tipdagi podalar zarur. Sog'lom sigirlarning o'rtacha vazni 500-600 kg, sersutligi 4000-5000 kg bo'lishi kerak. Bu narsa ularni bir xil tipda va darajada oziqlantirish uchun zarur. Sigirlarning mashina bilan sog'ishga o'tkazish uchun elini hajmi, shakli, so'rg'ichlari bo'laklarining teng rivojlanganligi, elin indeksi, sut berish tezligi, sog'im vaqti va boshqa belgilar bo'yicha tanlash muhim ahamiyatga ega.

Tatqiqot maqsadi. Simmental zoti sigirlarining yelini shakli va sifatini o'rganish.

Tatqiqot obe'kti. Samarqand viloyati Pstdarg'om tumani Ipak yo'li maxallasi Temiryo'l qishlog'i "K-Eldor" fermer xo'jaligida urchitilayotgan simmental va mahalliy yaxshilangan qoramollarning buqachalari.

Tatqiqot natijalari. Respublikamizda qoramollarning qora-ola, qizil cho'l, shvits, bushuev zotlari rejali ravishda urchitiladi. SHu zotlarning ayrim podalarida sigirlar elini shakli va sifatini o'rganish maqsadida SH.A.Akmalxonov, I.X.Xidirov, E.YU.Karchevskiy, M.T.Rizaev, SH.Akbarxo'jaev, A.Mustafoev, M.CH.CHutboev, I.I.Golubkin, N.I.Biserova, S.Dustkulov va boshqalar tomonidan tekshirishlar o'tkazilgan. Bu tekshirishlarda ayrim zotlar va podalarda har xil shaklli elinli sigirlar miqdori har xil bo'lishi aniqlanadi. (P.Sobirov, A.Kaxarov, S.Dustqulov, 2003)

S.Do'stqulov, F.Isroilovlarning (2003) ma'lumotlariga ko'ra, Samarqand viloyatidagi «Payariq jamoa xo'jaligida urchitilayotgan qora-ola zotli sigirlarda

kosasimon elinli sigirlar 50,9 % ni, yumaloq elinli sigirlar 39,1% ni va echki elinli sigirlar 10 % ni tashkil qilgan.

Samarqand viloyatiga Oxunboboev nomli xo'jalikda urchitilgan qizil cho'l zotida kosasimon elinli sigirlar 42,75, yumaloq elinli sigirlar 43,6% va echki elinli sigirlar 13,7% bo'lganligi aniqlanadi.

Shu xo'jalikda urchitiladigan shvits zotli sigirlarda yuqoridagi elinlar nisbati 40,8; 46,6 va 12,6% bo'lishi isbotlanadi.

1 -jadval

Xar xil zotlarda sigirlarning elin shakli bilan sut mahsuloti orasidagi bog'lanish. (S.Dustkulov, F.Isroilov ma'lumoti)

				u		c	
		n	305 kunlik sog'im, kg	n	305 kunlik sog'im, kg	n	305 kunlik sog'im, kg
Qizil -cho'l			2750	48	2380	15	1900
Semmintal	103	42	2450	48	2032	10	1750

Kosasimon elinli sigirlarning sut mahsuloti yumaloq elinli sigirning sut mahsulotidan o'rtacha 10-20 foiz va echki elinli sigirlarning sut mahsuloti ko'payishi elin shaklining qisman yaxshilanishga olib keladi. Ammo sigirlar elin shaklini tezroq yaxshilash uchun elin shakli bo'yicha to'xtovsiz tanlash olib borish zarur. Echki va ibtidoiy elinli sigirlarni asta-sekin yaxshi elinli birinchi tuqqan sigirlar bilan almashtirib borish kerak. SHunday qilinganda podalarda sigirlarning elin shakli yaxshilanib boradi.

M.K.Narbaeva, CH.S.Sodiqova, SH.E.Qurbonova (2016) Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi "Bosh buloq chorva" naslchilik MCHJ fermasi sharoitida 2014-2016 iillar davomida semmintal zotiga mansub sigirlarning ishlab chiqarish tipi kesimida tajribalar tashkil qilishgan. Buning uchun: sut (I guruh), sut-go'sht (II gurux) va go'sht-sut (III guruh) tipiga mansub sigirlardan tegishli xar guruhga 10 boshdan tanlab olishgan va laktatsiyaning oxirigacha ularning sut mahsuldorligi va elin ko'rsatkchlarini taqqoslab o'rganishgan.

Xulosa

Ma'lumki sigirlarning sut mahsuldorligi ko'p jihatdan ularning elinini shakliga bog'liq bo'ladi. Tadqiqotlarda I –guruhga mansub bo'lgan sigirlarning 2 boshi vannasimon, 6 boshi kosasimon va 2 boshi esa dumaloq shaklli elinga ega bo'lgan. Jami

sog'in sigirlar soniga nisbatan bu ko'rsatkich tegishli: 20,0; 60,0 va 20,0 foizni tashkil qilgan. II –guruhdagi sigirlarda bu ko'rsatkich: 1 bosh (10,0%), 7 bosh (70,0%) va 2 bosh (20,0%) foizga teng bo'lgan. III –guruhdagi ya'ni go'sht –sut xiliga mansub bo'lgan sigirlarda vannasimon shaklga ega bo'lgan elin uchramagan, 7 boshi kosasimon (70,0%) va 3 boshi dumaloq (30,0%) shaklli elinga ega bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Солошенко В.А., Инербаев Б.О. Мясной симментал-новое селекционное достижение в Сибири // Зоотехния. 2014. №11. С. 6-8.
2. Швынденков В., Сурундаева Л., Бухарметов А. Продуктивные качества телок симментальской, лимузинской пород и их помесей // Молочное и мясное скотоводство. 2001. №3. С. 19-21.
3. Юдин М. Этологическая характеристика молодняка симментальской породы // Молочное и мясное скотоводство. 2002. №1. С. 36-39.
4. Шилов А. Мясная продуктивность симментал-монбельярд-голштинско о скота // Молочное и мясное скотоводство. 2001. №1. С. 25-26.
5. Тюлебаев С., Кадышева М. Создание внутripородного типа мясных симменталов // Молочное и мясное скотоводство. 2005. №6. С. 21-23.